

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-5

HISTORIOGRAPHY OF LAND AND WATER RELATIONS IN THE
BUKHARA EMIRATE: SOVIET-ERA RESEARCH

Nurov Arslonbek

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
arslonbeknurov@gmail.com

Abstract

This article examines the forms of land ownership and the tax system in the Bukhara Emirate during the second half of the 18th century and the 19th century, focusing on the legal and economic characteristics of amlok (state), mulk (private), and waqf (religious) lands. Based on the works of A.A. Semyonov, M.A. Abdurahimov, K.M. Mirzayev, and other scholars, the article highlights the role of agrarian relations in shaping social stratification and economic dependence. Archival documents are used to detail the distribution of land among peasant households and the burden of taxation imposed upon them.

Keywords: Bukhara Emirate, literature analysis, land ownership, amlok, waqf, mulk, kharaj, tax system, peasants, agrarian relations, archival documents.

ИСТОРИОГРАФИЯ ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В
БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ: ИССЛЕДОВАНИЯ СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА

Аннотация

В данной статье рассматриваются формы землевладения и налоговая система в Бухарском эмирате во второй половине XVIII и XIX века, с акцентом на правовые и экономические особенности земель амляк (государственных), мулк (частных) и вакф (религиозных). На основе исследований А.А. Семёнова, М.А. Абдураимова, К.М. Мирзаева и других авторов раскрывается роль аграрных отношений в социальном расслоении и экономической зависимости. Архивные документы используются для описания распределения земель среди крестьянских хозяйств и налоговой нагрузки.

Ключевые слова: Бухарский эмират, анализ литературы, землевладение, амляк, вакф, мулк, харадж, налоговая система, крестьяне, аграрные отношения, архивные документы.

BUXORO AMIRLIGIDA YER-SUV MUNOSABATLARINING YORITILISH
TARIXSHUNOSLIGI: SOVET DAVRI TADQIQOTLARIDA

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-5**

Annotatsiya

Ushbu maqola XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asrda Buxoro amirligidagi yer egaligi va soliq tizimining shakllari, jumladan amlok, mulk va vaqf yerlarining huquqiy va iqtisodiy xususiyatlarini tahlil qiladi. A.A. Semyonov, M.A. Abduraimov, K.M. Mirzayev va boshqa mualliflar tadqiqotlariga tayangan holda, agrar munosabatlarning ijtimoiy tabaqalanish va iqtisodiy qaramlikdagi o'rni ochib beriladi. Arxiv hujjatlari asosida dehqon xo'jaliklarining yer maydonlari va soliq yuki tafsilotlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, adabiyotlar tahlili, yer egaligi, amlok, vaqf, mulk, xiroj, soliq tizimi, dehqonlar, agrar munosabatlar, arxiv hujjatlari.

Kirish. Markaziy Osiyoning tarixiy-siyosiy rivojida Buxoro amirligi muhim o'rin tutgan bo'lib, uning agrar tuzumi, yer-suv munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanish tizimi uzoq davr mobaynida ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lib kelgan. Ayniqsa, XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda shakllangan yer egaligi va soliq tizimlari, nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va huquqiy jihatdan ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu davrda amlok, mulk, vaqf va ijara kabi yer egaligi shakllarining mavjudligi, dehqonlarning huquqiy maqomi, va soliqqa tortish mexanizmlari Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining asosiy belgilovchi omillari bo'lgan.

Sovet davri tarixshunosligida bu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar — xususan A.A. Semyonov, M.A. Abduraimov, K.M. Mirzayev, O.D. Chexovich, O.A. Suxareva, A. Majlisov, A.Y. Astanova va boshqa olimlarning ishlari — Buxoro agrar tizimini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qilgan. Bu tadqiqotlarda yer egaligining turlari, soliq tizimining shakllanishi, dehqonlarning ijtimoiy holati, vaqf yerlarining boshqaruvi va ahamiyati, hamda davlat va diniy elitaning iqtisodiy ustuvorligi masalalari muayyan darajada yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligidagi yer-suv munosabatlari o'rganishda Sovet tarixshunosligi muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. A.A. Semyonovning “Очерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского Ханства” (1929), K.M. Mirzayevning “Амляковая форма феодальной земельной собственности в Бухарского Ханстве” (1954), M.A. Abduraimovning tadqiqotlari, xususan “Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара” (1961), A.Y. Astanovaning “Документ по истории крестьянского землевладения в Бухарском эмирате” (1970), O.D. Chexovichning “О размерах хараджа в Бухаре” (1961) va “К проблеме земельной собственности в феодальной Средней Азии” (1976), O.A. Suxarevaning “Бухара. XIX – начало XX в.” (1966), A. Majlisovning “Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX – начале XX века” (1967), V.P. Vyatkinning “О вакуфах Самаркандской области”

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-5**

(1912) asarlari Sovet davrida Buxoro amirligining yer-suv munosabatlarini o'rganishda tadqiq qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-taqqoslovchi va manbashunoslik yondashuvi qo'llanildi. Asosiy e'tibor Sovet davri tarixchilari (A.A. Semyonov, M.A. Abduraimov, K.M. Mirzayev va boshqalar) tomonidan yozilgan ilmiy asarlar tahliliga qaratildi. Maqolada taqiqotchilar asarlariga tayanilgan holatda Qushbegi arxivi hujjatlariga tayangan holda dehqon yer egaligi va soliq tizimining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari baholandi. Ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlar asosida yer-suv munosabatlarining tabaqalanishi yoritildi.

Tahlil va natijalar. **A.A. Semyonov** Sovet tarixshunosligida Buxoro amirligiga oid eng yirik va asosli tadqiqotlar muallifi hisoblanadi. Uning 1929-yilda nashr etilgan "Sobiq Buxoro xonligining yer egaligi va soliq tizimi haqida ocherk" ("Очерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского Ханства") nomli asari Buxorodagi yer egaligi, soliqlar va mulk shakllarining batafsil tasnifini beradi. Semyonov Buxoro amirligida yer egaligining asosiy shakllarini — davlat (amlok), xususiy (mulk), vaqf (diniy-ma'rifiy) va ijara yerlar — tafsilotli tarzda tasniflaydi. Har bir yer turi uchun huquqiy maqomi, kimga tegishli bo'lgani, qanday boshqarilganligi, va undan qanday daromad olinishi ko'rsatiladi. Semenov suv inshootlarining tuzilishi, foydalanish tartibi, suv taqsimoti va suvdan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq turlari haqida yozadi. Yer egalari va dehqonlardan xiroj, ushr, zakot va boshqa turdagi soliqlar undirilgan. Semenov "amlok" yerlarini davlatga tegishli ijaraga beriluvchi mulklar deb ta'riflaydi. Soliq tizimi murakkab bo'lib, har yili dehqonlar yer uchun xiroj to'lashlari shart edi. Soliq miqdorlari, yig'ish tartibi va bu soliq tizimi orqali davlat daromadlarining shakllanishi tahlil qilinadi. Semyonov o'z asarida agrar munosabatlarning ijtimoiy jihatiga ham e'tibor qaratib, dehqonlarning huquqiy holati, yerni ijaraga olish shakllari va mulkdor-dehqon o'rtasidagi munosabatlarni ham ko'rsatadi.

Semyonov, shuningdek, 1954-yildagi "Buxoro xonligining so'nggi davridagi markaziy ma'muriy boshqaruv tuzilmasi haqida ocherk" ("Очерк устройства центрального административного управления Бухарского Ханства позднейшего времени") asarida Buxoro amirligining ma'muriy-huquqiy tizimiga to'xtaladi. U qozilar, raislar, muftiylar va amlokdorlarning yer-suv ustidan qanday nazorat yuritgani, qanday tartibda yerlar ajratilgani va soliqqa tortilgani haqida hujjatli dalillar keltiradi.

K.M. Mirzayev "Buxoro xonligidagi amlok shaklidagi feodal yer mulki" ("Амляковая форма феодальной земельной собственности в Бухарского Ханстве") (1954) nomli tadqiqotida amlok tizimini davlatga tegishli yer egaligi shakli deb izohlaydi. Bu yerlar amirlik ixtiyorida bo'lib, ularni yirik mansabdorlar

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-5

vaqtinchalik boshqarib, daromad olishgan. Mirzayev, shuningdek, ushbu tizimda vaqf yerlarining ham muhim rol o'ynaganini, ammo ular ko'pincha xususiy manfaatlarga xizmat qilganini ko'rsatadi.

M.A. Abduraimov o'zining “Amir Haydar maktublarida feodal yer egaligi va feodal renta masalalari” (“Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара”, 1961) asarida Amir Haydar nomidan chiqqan maktublar asosida yer egaligi tizimini tahlil qiladi. U ijarachilar zimmasiga tushadigan yillik renta, vaqf yerlarining band qilinishi, dehqonlarning yuridik huquqsizligi va iqtisodiy qaramligini ochib beradi. Shuningdek, Abduraimov ushbu yozishmalarda mulk bahosi, suv resurslaridan foydalanish huquqlari va yer solig'i masalalari ochiqligini ta'kidlaydi. “XVI asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida agrar munosabatlar ocherki” (“Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века”, 1966) asarida Buxoro amirligi yer egaligi, soliq tizimi, qishloq xo'jaligi va sug'orish tizimi yetarlicha tadqiq qilingan.

A. Majlisovning “XIX – XX asr boshlarida Sharqiy Buxorodagi agrar munosabatlar” (“Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX – начале XX века”, 1967) nomli tadqiqoti tog'li va chekka hududlardagi yer egaligi, vaqf va amlok yerlarining sinfiy taqsimotini o'rganishga qaratilgan. U Buxoro amirligi devonxonasidagi hujjatlar, arxiv materiallari va og'zaki rivoyatlarga tayangan. Majlisovning fikricha, yer egaligi ijtimoiy tabaqalashuvga xizmat qilgan, vaqf yerlaridan faqat yuqori tabaqadagi mansabdorlar foydalangan.

O.A. Suxareva “Buxoro. XIX – XX asr boshlarida” (“Бухара. XIX – начало XX в.”, 1966) nomli ishida Buxoro shahridagi vaqf yerlarining tashkil etilishi, ularning daromad manbai sifatidagi vazifasi va shahar rivojlanishidagi o'rni haqida yozadi. Unga ko'ra, ko'plab madrasa, masjid va imoratlar o'z xarajatlarini vaqf yerlaridan olingan daromad hisobidan moliyalashtirgan. Biroq bu tizim aholining past tabaqalari manfaatiga xizmat qilmagan, balki boy-u mansabdorlarga foyda keltirgan.

Vyatkinning “Samarqand viloyatidagi vaqflar haqida” (“О вакуфах Самаркандской области”, 1912) nomli ishi Samarqandda mavjud bo'lgan vaqf yerlarining boshqaruv tizimi, moliyaviy hisob-kitob yuritilishi va vaqf xodimlarining majburiyatlarini hujjatli asosda ochib beradi. Unga ko'ra, vaqf yerlaridan tushgan daromadlar ta'lim, diniy muassasalar va ba'zida xayriya ishlari uchun sarflangan bo'lsa-da, bu tizim tez-tez suiste'mol qilingan.

O.D. Chexovichning “XIX asrda Buxoroda xirojning miqdori” (“О размерах хараджа в Бухаре”, 1961) va “O'rta Osiyodagi xususiy yer egaligi masalasiga doir” (“К проблеме земельной собственности в феодальной Средней Азии”, 1976) haqida nomli tadqiqotlarida Buxorodagi xiroj tizimining real hajmini va uning

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-5**

dehqonlar iqtisodiyotiga ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Asarda ayrim hududlarda dehqonlar hosilning 30 foizigacha qismini xiroj sifatida topshirishga majbur bo'lganliklari ko'rsatiladi. Chexov bu soliq yukining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ochib beradi: dehqonlar yerini tark etgan, yer bo'sh qolgan va vaqf yerlarining daromadlari pasaygan.

Chexovich xirojning belgilanishida amaldorlarning subyektiv yondashuvi, taqsimotdagi noaniqliklar va soliq yuki atrofidagi norozilik holatlarini tarixiy hujjatlar asosida keltiradi. Bu materiallar orqali Buxoro amirligidagi yer egaligi faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy bosim vositasi ham bo'lganini ko'rish mumkin.

A.Y. Astanovning "Buxoro amirligida dehqon yer egaligi tarixiga oid hujjat" 1970-yilda e'lon qilingan maqolasida Buxoro amirining Qushbegi arxivida saqlanayotgan 86 mingdan ortiq hujjatni o'rganganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, 1878-yilga oid Cho'lpan qishlog'iga tegishli yer mulklari ro'yxatini o'z ichiga olgan hujjat katta ilmiy qiymatga ega. Unga ko'ra, Cho'lpan qishlog'ida 84 ta xo'jalik bo'lgan va ular jami 636,25 tanob yerga egalik qilganlar.

Hujjat dehqonlarning yer egaligi miqdori asosida uch toifaga ajratilganini ko'rsatadi:

1. 1/4 dan 5 tanobgacha yerga ega xo'jaliklar – 47 ta (ular jami yerlarning 17% ini tashkil qilgan);
2. 6 dan 15 tanobgacha yerga ega xo'jaliklar – 25 ta (41.7% yerlar);
3. 15 tanobdan ortiq yerga ega xo'jaliklar – 12 ta (lekin jami yerlarning 41.3% ini egallagan).

Bu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Buxoro amirligidagi asosiy dehqonlar sinfi juda oz yerga egalik qilgan, ko'pchilik xo'jaliklar faqat o'z ehtiyoji uchun oz miqdordagi ekinlarni yetishtirgan. Katta yer egalari esa 8-9 xil qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib, ularni bozorga yo'naltirgan. Bu yer egaligi tizimi ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning aniq ko'rinishidir.

Xulosa. Buxoro amirligida yer-suv munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan Sovet davri tadqiqotlari qishloq xo'jaligi tuzumining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. A.A. Semyonov, M.A. Abduraimov, K.M. Mirzayev va boshqa mualliflar tomonidan yer egaligi shakllari (amlok, mulk, vaqf), soliq turlari (xiroj, ushr) va dehqonlarning huquqiy maqomi chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlar yer egaligi tizimining tabaqalanish, ijtimoiy tengsizlik va siyosiy nazorat vositasi sifatidagi rolini ochib beradi.

Arxiv manbalari, jumladan Qushbegi devonxonasiga oid hujjatlar, dehqon yer egaligining cheklanganligini va yirik yer egalari ustunligini isbotlab beradi. Sovet tarixshunosligi bu tizimni dehqonlar iqtisodiy qaramlikda bo'lganini asoslaydi. Shu

bois, bu davr tadqiqotlari Buxoro amirligidagi qishloq xo'jaligi tizimini yoritishda muhim nazariy va manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдураимов М.А. Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара // *Общественные науки в Узбекистане*. 1961, №6. – С. 110.
2. Абдураимов М.А. О некоторых категориях феодального землевладения и положении крестьян в Бухарском ханстве в XVI—начале XIX века // *Общественные науки в Узбекистане*. 1963, № 7. – С. 32-42.
3. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. В 2 т. Т. 1. Ташкент: Фан, 1966. – 368 с.
4. Астанова А.А. Земельные отношения в Бухарском эмирате в XIX — начале XX в. Ташкент, 1963.
5. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. Ташкент: Фан, 1985. – 264 с.
6. Джурабаев Д.Х. Изучение политической истории Бухарского эмирата в советский и постсоветский периоды // *Общество и управление*. 2020, №4 (79).
7. Джурабаев Д.Х. К вопросу о формах земельной собственности в Бухарском ханстве во второй половине XVIII в. // *Общество и управление*. 2021, №1 (80).
8. Документы к истории аграрных отношений. Акты феодальной собственности на землю XVII—XIX вв./ Подбор док., пер. введ. и примеч. О. Д. Чехович; Под ред. А. К. Арендса. Ташкент: Изд-во АН Уз. ССР, 1954. Вып.. 1. – 247 с.
9. Вильданова А.Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях // *Письменные памятники Востока. Ежегодник*: 1963. М., 1970. – С. 40-67.
10. Вяткин В.Л. О вакфах Самаркандской области // *Отдельный оттиск из СКСО*. Самарканд, 1912. Вып.10. – С. 95-107;
11. Курбонов А. К. Земельная собственность и ее упорядочение посредством налоговых платежей в Средней Азии в IX-XX вв. // *Экономический журнал*. 2008. - №15. – С. 119-129.
12. Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.). Алматы: Дайк – Пресс, 2004. – 5-16 с.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-5**

13. Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начала XX в.). Ташкент, 1978. – 291 с.
14. Ростиславов М. Н. Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае // Труды Тетьего Международного съезда ориенталистов. СПб, 1876. -Т 1.-С. 329-359.
15. Саидов А. Социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII – первой половине XVIII вв. Душанбе: Ирфон, 2006. – 220 с.
16. Семенов А.А. Очерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства. Москва: Изд-во АН СССР, 1929. — 54 б.
17. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Сталинабад: АН Таджикской ССР, 1954. – Т. 25, вып. 2. – С. 3–36.
18. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе с приложением списка населения местного округа // ЗИРГО. По отделению статистики. –СПб., 1874. - Т. 4. – 561 с.
19. Чехович О.Д. К проблеме земельной собственности в феодальной Средней Азии // Общественные науки в Узбекистане. 1976. – №11. – С. 36–44.
20. Чехович О.Д. О размере хараджа в Бухаре XIX века // Общественные науки в Узбекистане. 1961. – №3. – С. 38–44.
21. Юлдашев М.Ю. Вопросы аграрных отношений в Бухарском эмирате XIX века. Ташкент, 1959.
22. Юлдашев М.Ю. К истории землевладения в Средней Азии // Общественные науки в Узбекистане. 1964, № 3.